

ICHAK YALLIG'LANISH KASALLIGIDA MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Qurbonova Dilnoza G'olib qizi
Isaqulov Ulug'bek Alisher o'g'li
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Pediatrica fakulteti 2-kurs talabalari
Qurbonova Latofat Murodullayevna
Normal anatomiya kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Maqolada, tibbiyotdagi ichak yallig'lanishi, enterit haqida morfologik o'zgarishlar, uning sabablari, asoratlari, diagnostikasi, ushbu turdagi yallig'lanishda morfologik o'zgarishlar haqida qisqacha bayonotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yallig'lanish, arteriya, leykosit migratsiya, fagotsitoz, effect, nerv, qizarish, gipertermiya, to'qima sitolizi, alterative yallig'lanish, eksudativ yallig'lanish, proliferativ yallig'lanish.

Аннотация: В статье даны краткие сведения о воспалении кишечника в медицине, морфологических изменениях при энтерите, его причинах, осложнениях, диагностике, морфологических изменениях при этом виде воспаления.


Ключевые слова: воспаление, артерия, миграция лейкоцитов, фагоцитоз, эффект, нерв, покраснение, гипертермия, цитолиз тканей, альтеративное воспаление, эксудативное воспаление, пролиферативное воспаление.

Annotation: In the article, brief statements about intestinal inflammation in medicine, morphological changes in enteritis, its causes, complications, diagnosis, and morphological changes in this type of inflammation are given.

Keywords: inflammation, artery, leukocyte migration, phagocytosis, effect, nerve, redness, hyperthermia, tissue cytolysis, alterative inflammation, exudative inflammation, proliferative inflammation.

Yallig'lanish — kasallik qo'zg'atuvchi zararli omillar (fiz., kimyoviy, biol.) ta'siriga qarshi organizmning murakkab mahalliy nomaxsus himoya reaksiyasi. Shikastlangan soha yallig'lanish reaksiyasi tufayli organizmning sog'lom to'qimalaridan ajralib qoladi; u joyga qondan immun hujayralar kelib, ular har xil destruktiv effektlarni rivojlantiradi. Arteriyalar va kapillyarlarning qon bilan to'lishi yallig'lanish o'chog'ida qizarish va gipertermiyaga, tomirlar o'tkazuvchanligining oshishi shish va og'riqqa sabab bo'ladi (nerv oxiriga bosim bo'lganligi hisobiga). Leykotsitlar migratsiyasi (birinchi navbatda, neytrofillarning) va ularning faollashishi atrofdagi to'qimalarning sitolizi va yiring hosil bo'lishiga olib keladi. Yallig'lanish

o'choqlari zararli omilni bostiruvchi asosiy mexanizmlarga fagotsitoz, hujayradan tashqari sitoliz, nomaxsus kontaktli killing hamda komplement tizimining sitolitik reaksiyalari hisoblangan gumoral reaksiyalar kiradi. Shu bilan bir vaqtda yallig'lanish mahalliy va umumiy immunitetining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ya. organizmning ilk reaksiyalaridan biri hisoblanib, u organizmni yot jismlardan himoya qilish yoki parchalangan o'z hujayralaridan tozalash kabi vazifalarni bajaradi.



Yallig'lanish. uchta muhim tarkib (komponent)dan: alteratsiya (hujayra va to'qimalarning shikastlanishigacha bo'lgan o'zgarishlari), ekssudatsiya (suyuqlik va qon hujayralarining tomirlaridan chiqishi) va proliferatsiya (hujayralarning ko'payishi va to'qimalarning o'sib ketishi)dan tashkil topgan. yallig'lanish reaksiyalarining har qanday ko'rinishlarida bu uch komponent albatta mavjud bo'ladi. Ulardan qaysi birining ustunligiga ko'ra, yallig'lanishning uchta asosiy — alterativ, ekssudativ va proliferativ shakli farq qilinadi.

Alterativ yallig'lanish ko'pincha ichki a'zolar (yurak, jigar, buyrak)da yuzaga keladi. Yallig'lanish ning bu shakli ba'zi bir allergik reaksiyalar, kuchli toksik (mas, patogen mikroblar ajratadigan ekzotoksin) modsalar ta'sir etganda, autoimmun jarayonlarda vujudga keladi.

Ekssudativ yallig'lanish boshqalariga nisbatan ko'proq uchraydi; yallig'lanish o'chog'ida tomirlarning tavsifi o'zgarishi hisobiga tomir devorining o'tkazuvchanligi oshadi, natijada qonning suyuq qismi va leykotsitlar tomirdan atrofdagi to'qimaga chiqib, yallig'lanish o'chog'ida to'planadi (bu suyuqlik ekssudat deb ataladi). Agar ekssudat deyarli tiniq va tarkibida 8% gacha oqsil bo'lsa, seroz yallig'lanish deb ataladi. Ekssudatda maxsus oqsillar — fibrinogen ko'p bo'lsa, fibrinoz yallig'lanish deyiladi. Yiringli yallig'lanishda ekssudatda juda ko'p miqdorda nobud bo'lgan leykotsitlar va boshqalar bo'ladi.

Proliferativ yallig'lanish hujayra elementlarining ko'payishi, tugunlar hosil bo'lishi bilan ifodalanadi, bu zaxm, sil, toshmalil terlama kabi kasalliklarda kuzatiladi.

Yallig'lanish himoya, moslanish reaksiyasi bo'lsada, ma'lum sharoitlarda organizm uchun hayotiy zarur to'qimalarning shikastlanishiga olib keladi. yallig'lanishning oqibatlar har xil, yallig'langan soha butunlay tuzalib ketishi, ba'zan to'qimalarning talaygina qismiga putur yetgan bo'lsa, yallig'langan joy chandiqlanib qolishi ham mumkin. Agar yallig'lanish ichki a'zolarida bo'lsa, qo'shni a'zolari bir-

biriga tutash joylarida bitishma hosil bo'ladi, natijada shikastlangan a'zo funksiyasi o'zgaradi.

Yallig'lanishning har qanday ko'rinishida shifokorga murojaat etish va uning ko'rsatmalariga amal qilish lozim. Yallig'lanishning klinik belgilari: Qizarish (rubor) arterial, keyin esa venoz giperemiya rivojlanishi bilan bog'liq. Mahalliy haroratning oshishi(color) yallig'lanish o'chog'ida katabolik jarayonlar intensivligining oshishi, shuningdek arterial giperemiya tufayli to'qimalarga ko'p miqdorda iliq arterial qon kiradi. Shish (tumor) eksudatsiya mexanizmlariga asoslanadi Og'riq (dolor) yallig'lanish mediatorlari (gistamin, kininlar) tomonidan retseptorlarning tirnash xususiyati, shuningdek eksudatning mexanik bosimi, atsidoz va giperosmiya natijasida yuzaga keladi. Disfunktsiya (functio leasa) hujayraning shikastlanishi va o'limining natijasidir.

Yallig'lanish belgilari.

1. Isitma. U neytrofillar va makrofaglar tomonidan leykotsitlar deb ataladigan pirogenlarni (interleykin-1) chiqarishi tufayli rivojlanadi.

2. Leykotsitoz. Piogen mikroblar keltirib chiqaradigan o'tkir yallig'lanishda periferik qonda neytrofillar sonining mutlaq ko'payishi (neytrofiliya) va leykotsitlar formulasining chapga siljishi bilan tavsiflanadi. Bu reaksiya qizil suyak iligi zahiraviy hovuzidan qonga leykotsitlarni chiqarishga (interleykin-1 va o'simta nekrozi omilining ta'siri), shuningdek, koloniyani ogohlantiruvchi omil tasirida (влиянием колониестимулирующего фактора) leykopoezni rag'batlantirishga asoslangan.

3. Qonda "o'tkir fazali yallig'lanish oqsillari" tarkibining ko'payishi.

4. Eritrositlarning cho'kish tezligining oshishi (СОЭ). Bu qon plazmasidagi qo'pol oqsillar (globulinlar, fibrinogen) miqdorining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida eritrositlarning sirt manfiy zaryadi kamayadi va ular osongina yig'iladi.

5. Intoksikatsiya. Yallig'langan to'qimalardan qonga alteratsiya mahsulotlarining kirib borishi natijasida yuzaga keladi.

Enterit (yun. — ichak) — ingichka ichakning yallig'lanishi. Odatda, enterit yakka holda kechmay, aksari ingichka va yo'g'on ichaklarning baravar yallig'lanishi — enterokolit yoxud ichak va me'daning bir vaqtda yallig'lanishi — gastroenterit ko'rinishida uchraydi. O'tkir va surunkali enterit farqdanadi. O'tkir enterit aksari yoz va kuzda (ko'proq issiq vaqtda) kuzatiladi. Odamda, ovqatdan bo'ladigan toksikoinfeksiyalar (ya'ni buzilib qolgan go'shtli taomlar, chala, xom pishirilgan ovqat, toza yuvmay yeyilgan meva, sabzavot va h.k.), ba'zi kimyoviy moddalar (simob, yod, ayrim sanoat zaharlari), shuningdek, ba'zi doridarmonlardan zaharlanish, ayrim mevachevalarning organizmga allergik ta'siri, badhazm ovqatlarni ko'p yeyish va boshqalar o'tkir enteritga sabab bo'ladi.

Organizmning qizib ketishi yoxud sovuq qotishi, jazirama issiqda muzdek ichimliklar ichish, ichakda gijja bo‘lishi va h.k. ham o‘tkir enterit kelib chiqishiga olib keladi. Enterit, shuningdek, ba’zi yuqumli kasalliklar (ich terlama, paratiflar va boshqalar) oqibatida paydo bo‘lishi mumkin. Ichaklarning yallig‘lanish tarziga ko‘ra, enterit ning bir necha xili (kataralfolikulyar, yiringli, yarali) farq qilinadi. Kataral shakli ko‘p uchraydi. Enteritda ichak shilliq qavati qizarib, shishadi va unga donadona qon quyiladi; ichak devoridan ko‘p shilimshiqajraladi, epitelial qavati ko‘chib tushadi. Enterit da to‘satdan qorin va kindik atrofi sanchib og‘riydi, quldiraydi, tez-tez (sutkasiga 5—10-marta) ich suradi, bemorning ko‘ngli aynib, qayt qiladi. Ba’zan qusuqqa shilimshiq va qon aralashadi, bemor isitmalab, ishtahasi yo‘qoladi, terlaydi, og‘zidan suv keladi. Agar ingichka ichak ko‘proq zararlangan bo‘lsa, kuniga 4—7-marta ich suradi, axlat dastlab quyuyq, ko‘p, qo‘lansa, keyin suyuq, ko‘pirib (ba’zan achimsiq hidli) keladi, ich kelgandan so‘ng og‘riq to‘xtaydi. Kasallik, aksari yo‘g‘on ichakda bo‘lsa vaqtbevaqt yo‘g‘on ichak bo‘ylab og‘riq tutadi, sutkasiga 10—15-marta ich ketadi, axlatda ko‘p shilimshiq, ba’zan qon bo‘ladi. Enteritda ko‘p qusish va ich ketishi tufayli organizm suvsizlanadi (bemorning terisi quruqshaydi, og‘zi qurib, hidlanadi, tili karashlanib, lablari qovjiraydi, qorni dam bo‘ladi va h.k.), yurak faoliyati susayadi, qon bosimi va gavda temperaturasi pasayib, bemorning rangi ketadi, ko‘zlari kirtayadi; og‘irroq hollarda oyoqqo‘llari muzlab, tortishibtortishib turadi. O‘tkir enterit, to‘la va to‘g‘ri davolansa bemor sog‘ayib ketadi. Aks hodda surunkali tus oladi. Surunkali enterit .ning kelib chiqish sabablari o‘tkir enteritnikiga o‘xshash. Shuningdek, bu enterit ba’zan me‘da, o‘t qopi, jigar yoki me‘da osti bezi kasalliklarida ichak devorining zararlanishi yoki ovqatda vitaminlar tanqisligi va boshqalar oqibatida paydo bo‘ladi. Bunda ingichka va yo‘g‘on ichaklar devorining hamma qatlami shikastlanadi; ichak devorining so‘rish va harakat funksiyasi buziladi. Surunkali enterit goh zo‘riqib, goh bosiladi.

Davo bemorning umumiy ahvoli va kasallik belgilariga qarab tayinlanadi. Surunkali enteritni davolashda, asosan, parhez va vaqtida qat’iy rejim bilan ovqatlanish yaxshi foyda beradi. Oshlovchi moddalar tutgan (behi, nok va h.k.) mevalar suvidan ichib turish, kasallik zo‘riqqanda yumshoq taomlar yeyish, vitaminlar qabul qilish tavsiya etiladi. Oldini olish: doim oziq-ovqatlarni yaxshilab pishirib yeyish, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, pashshalarni qirish va h.k.dan iborat.

Xulosa

Yallig‘lanishning har qanday ko‘rinishida shifokorga murojaat etish va uning ko‘rsatmalariga amal qilish lozim. Yallig‘lanishning klinik belgilari: Qizarish arterial, keyin esa venoz giperemiya rivojlanishi bilan bog‘liq. Mahalliy haroratning oshishi yallig‘lanish o‘chog‘ida katabolik jarayonlar intensivligining oshishi, shuningdek

arterial giperemiya tufayli to'qimalarga ko'p miqdorda iliq arterial qon kiradi. Shish ekssudatsiya mexanizmlariga asoslanadi Og'riq (dolor) yallig'lanish mediatorlari (gistamin, kininlar) tomonidan retseptorlarning tirnash xususiyati, shuningdek ekssudatning mexanik bosimi, atsidoz va giperosmiya natijasida yuzaga keladi. Disfunktsiya hujayraning shikastlanishi va o'limining natijasidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, enterit va ichakning yuqori yallig'lanishida inson o'z sog'lig'iga jiddiy e'tibor berishi lozim, aks holda uning ichaklariga tushgan har zararli bakteriya ham uning o'limiga sabab bo'ladi, ushbu maqolada ichak kasalliklari, uning yallig'lanishi haqida , asoratlari, kelib chiqish sababi, va boshqa ko'plab ma'lumotlar keltirildi. Ma'lumotlardan foydalangan holda, insonlarning o'z sog'liklari haqida qisqacha bilib olish imkoni yaratildi. Avvalo inson ruhi sog'lom bo'lsa uning tanasi ham sog'lom bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.Martishla li iz modы obщaya praktika»nov, N.A.Muxin, V.S.Moiseev Vnutrennie bolezni, 2004
2. V.V.Ruksin Neotlojnaya kardiologiya, 2001
3. D.Morman, L.Xeller, Fiziologiya serdechno sosudistoy sistemыshla li iz modы obщaya praktika», 2004
4. Elektronnaya meditsinskaya biblioteka: «Spravochnik prakticheskogo vracha»
5. Jeffrey Bender, Kerry Russell, Lynda Rosenfeld, Sabeen Chaudry-Oxford American Handbook of Cardiology, 2011
6. A.Zaza An introduction to cardiac electrophysiology
7. ABC of Interventional Cardiology - Ever D. Grech, 2004
8. Cardiovascular Disease in the Elderly - Wilbert S.Aronow, Jerome L.Fleg,
9. [www.vidal.ru /kardiologiya](http://www.vidal.ru/kardiologiya)
10. [Medlistok.com./infarct.asp](http://Medlistok.com/infarct.asp) 11.[health. mail.ru /disease/infarct/](http://health.mail.ru/disease/infarct/)